GRADASIYANING IFODALANISHIDA MIQDOR VA INTENSIVLIK TUSHUNCHASI

Mahmudova Nilufarxon Ravshanovna

dosent, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd)

Andijon davlat chet tillari instituti Andijon, O'zbekiston

Mahmudova1076@gmail.com

Ko'plab tadqiqotchilar miqdor tushunchasi bilan intensivlik aloqasini qayd qiladilar, uni miqdor tushunchasining xususiy holi sifatida ko'rib chiqadilar, bu bizningcha to'g'ri emas. Ammo intensivlik tushunchasi turli tilshunoslar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Ayrim olimlar intensivlik tushunchasi bilan hissiyotlilik, ta'sirchanlik, emfaza kabi turli hodisalarni bog'laydilar. Masalan, I.I. Turanskiy intensivlikni ekspressivlikning miqdor o'lchovi sifatida izohlab quyidagilarni keltiradi: «tabiatda har bir predmet o'lchamlar bilan xarakterlanadi, nutq faoliyatidagi ekspressivlik – bu nutqning sifat tomoni, intensivlik esa sifatning miqdoriy xususiyatidir»[4.17]. Boshqa tadqiqotchilar (K.M. Suvorina, Ye.I. Sheygal, Ye.V. Belьskaya) intensivlik va ekspressivlik o'rtasida sabab-oqibat munosabatlarini ko'rib chiqadilar. Ye.I. Sheygal qayd qilishicha intensivlik til birliklarining ta'sir qiluvchi kuchini oshirishning ko'p sonli vositalaridan biridir[5.26]. Ye.V. Belskaya intensivlik va ekspressivlik o'rtasidagi sabab –oqibat aloqalarini rag'batlantirib, intensivlikning past gradatsiyasi ekspressivlikni qo'zg'atmaydi, intensivlikning yuqori gradatsiyasi so'zlovchining hissiy reaktsiyasiga olib keladi deb hisoblaydi[1.318]. Intensivlik tushunchasiga ko'plab tilshunoslar gradatsiyaviylikni kiritib, mazkur tushunchani gradatsiya, gradatsiyaviylik terminlari yordamida aniqlaydilar. Ye.I. Sheygal, masalan intensivlikni belgining namoyon bo'lish miqyosidagi gradatsiyani aks ettirish uchun xizmat qiladigan va turli til pog'onalari vositalari bilan ifodalanadigan til tushunchasi sifatida izohlaydi[5.14].

I.I. Turanskiy qayd qilishicha intensivlikning semantik tushunchasi asosida mazkur so'zning keng ma'nodagi miqdor gradatsiyasi tushunchasi yotadi[4.7]. K.M. Suvorin intensivlikni ifodalash uchun xizmat qiluvchi so'z qatori sifatida intensivlarni ajratib ularning semantikasi miqdoriy aynan gradatsiyaviy tafovutda aks etadi deb hisoblaydi. L.G.Kotnyuk belgi intensivligi, belgi intensifikatsiyasi, belgi gradatsiyaviyligi, belgi gradatsiyasi kabi terminalarni sinonim sifatida qo'llaydi[4.157]. Mazkur tadqiqotda intensivlik va miqdorga ega gradatsiyaviylik aloqasi tan olinadi. Bunday yondashuv gradatsiya tushunchasini toraytiradi, mazkur hodisani har tomonlama tadqiq qilishni imkonsiz qiladi, modomiki gradatsiya tushunchasi intensivlik tushunchasidan ancha kengdir. Intensivlik – belgi namoyon bo'lish gradatsiyasini aks ettiruvchi tushunchadir. Gradatsiya belgi o'zgarishini qayd qilish jarayoni bo'lib, u ikki yo'nalishda amalga oshadi: o'sish va kamayish, hamda mazkur jarayon natijasini qayd qilishdir. Gradatsiyalanganlik – belgining xususiyati bo'lib, uning o'zgarish qobiliyati sanaladi va ma'lum davrdagi o'zgarishlar bilan qayd qilingan bo'ladi.

Intensivlik tushunchasining mazkur tadqiqotlaridan foydalanib shuni qayd qilish kerakki unda intensivlik bilan gradatsiya va gradatsiyaviylikning aloqasi namoyon bo'ladi. Intensivlik gradatsiyaviy belgilarga tegishli bo'lib, bunda gradatsiyalanish, shakllanish belgilari mavjud. Shu sababli tilshunoslar minimaldan maksimalgacha bo'lgan belgilarning barcha gradatsiyalarini qamrab oluvchi belgilarning namoyon bo'lishi o'zgarish shkalasi bilan intensivlikni ifodalashning til vositalarini taqqoslaydigan va «pasayish – me'yor – ko'tarilish» asosida quradilar. Gradatsiya, ma'lumki, – bu ayrim shkalaga muvofiq tartibga solinishdir. Shunday tarzda tasdiqlash mumkinki intensivlik xususiyati gradatsiyalangan bo'ladi.

Gradatsiyaviylik va intensivlik tushunchasi tizimlilik va ifodalash vositalarning turli pog'onaviyligi bilan xarakterlanadi. Gradatsiyaviylikni ifodalashning ayrim vositalari intensivlikni ifodalash vositalari bilan mos tushadi, qayd qilinganidek intensivlik – gradatsiyaviy belgilardan biri, ammo ularning to'liq mos tushishini tasdiqlash imkoni yo'q.

Qayd etish kerakki intensivlik tushunchasi miqdor tushunchasi kabi ayrim mualliflar tomonidan funktsional-semantik maydon sifatida ko'rib chiqiladi[3.27]. Shunday tarzda intensivlik tushunchasini tarkibiy tashkil qilinish asosida intensivlikni maydon yadrosi va periferiyasiga ajratish imkonini beruvchi gradatsiya turadi. Bu shuni yana bir marta tasdiqlaydiki gradatsiyaviylik tushunchasining mazmuniy hajmi intensivlik tushunchasining mazmuniy hajmidan ancha kengdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Бельская Е.В. К вопросу о месте категории интенсивности в ряду лексико-семантических категорий (на материале говора с. Вершинино) // Мова і культура. – К.: Видавничий Дім Дмитра Бураго, 2004. – Вип. 7. – Т. 6. С – 318 (С. 314-321).

2. Котнюк Л.Г. Выражение градуальности признака в семантике имен прилагательных со значением размера (на материале английского языка): Дисс. … канд. филол. наук: 10.02.04. – Киев, 1986. – 152 с.

3. Рсалдинов К.Т. Категория интенсивности признака в современном немецком языке: Автореф. дисс. … канд. филол. наук: 10.02.04 / Моск. гос. пед. ин-т иностр. яз.им. Мориса Тореза. – М., 1980. – 27 с.

4. Туранский И.И. Семантическая категория интенсивности в английском языке. – М.: Высш. школа, 1990. С – 19 (173 с).

5. Шейгал Е.И. Интенсивность как компонент семантики слова в современном английском языке: Автореф. дисс. … канд. филол. наук: 10.02.04 / Моск. гос. пед. ин-т иностр. яз.им. Мориса Тореза. – М., 1981. – 26 с.